

O'ZBEK TILIDA OLMOSSH SO'Z TURKUMINING IMLOSI

R.Eshaliyeva, SamDU

magistranti

Annotatsiya: O'zbek tilshunosligida olmosh so'z turkumi bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan, jumladan, olmoshlarning guruhlanishi yozilishi, yasalishi qanday hosil bo'lishi, qanday so'zlar kirishi, umuman, imlosi bo'yicha kuzatishlar olib borishShu bo'yicha tushuncha berish.

Kalit so'zlar: Olmosh, imlo, so'z, nurq, jarayon ,belgi, imo-ishora, adresat, tinglovchi, turkum, qo'shilish, ajratish, jamlash.

O'zbek tilshunosligida olmosh so'z turkumlarining yozilishi va imlosi, ularning boshqa so'z turkumlari bilan munosabati.Bajaradigan vazifasiga e'tibor beradigan bo'lsak, so'zlovchi fikriga qo'shimcha izoh berish imo ishora vazifasini o'taydi. Olmosh (ichi bo'sh so'zlar) - Barcha mustaqil so'z turkumlari va hatto yordamchi so'zlar, so'z birikmasi hamda gap o'rnida almashinib qo'llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh turkumiga xos hisoblanadi. Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotganligi matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.Olmosh so'z turkumining yozilishi,imlosi qo'shimcha qo'shilishi bilan olmosh so'z turkumida ma'no ko'لامи kengayishi,yoki torayishi mumkin.Bu adresatning nutqiy muloqot jarayonida olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni ishlatishiga bog'liq.

Olmoshlarning umuman, atash ma'nosiga ega bo'limgaganligi sababli "Ichi bo'sh so'zlar" deb ataladi. Olmoshlar ma'nosiga ko'ra quyidagi yetti guruhga bo'linadi: Kishilik olmoshi,o'zlik olmoshi,ko'rsatish olmoshi,so'roq olmoshi,belgilash olmoshi,bo'lishsizlik olmoshi.

1.Kishilik olmoshlari

O‘zbek tilida kishilik olmoshlari uch shaxsdan biriga ishora qiladi.Kishilarga nisbatan aytildigan so‘zlar shakllari olmosh so‘z turkumiga xos bo‘lgan so‘zlar sirasiga kiradi.Birlik.Ko‘plik.

I.men/biz (so‘zlovchi) shakllariga xos bo‘lgan,**Men** kishilik olmoshlari nutqda ishlatiladi,ammo ushbu olmoshlaridan shevaviy shakli **man** olmoshi takror qo‘llanilsa man-man so‘zi hosil bo‘ladi.Masalan: “*Man-man degan yigitlar sinadi hayot zo‘ridan.*”Bu esa **man-man** kishi ya’ni Tengi yo‘q,o‘zini ustun deb biladigan kishi ma’nosini beradi.Biz ko‘plik olmoshiga yana qo‘srimcha lar ko‘plik shaklini qo‘shtanimizda bizlar olmoshi hosil bo‘ladi. Masalan:“*Bizlar talabamiz*”. Bu esa kuchaytirish, ta’kid ma’nosini beradi.

II-sen siz (tinglovchi) ga nisbatan ishlatiladigan so‘zlar bo‘lib,**sen** so‘ziga lar qo‘srimchasini qo‘shtanimizda **senlar** olmoshi hosil bo‘ladi. Masalan:“*Buyruq shunaqa. Senlar qolasan.*”Bu sen olmoshning ma’nosiga nisbatan behurmatlik ma’nosini keltirib chiqadi.Nutqiy jarayonda bu sezilib turadi.**Siz** olmoshini esa nutqiy jarayonda ikki marta takror holda qo‘llaganimizda sизsiz so‘zi hosil bo‘ladi,Masalan: “*Bu dunyoda sизsiz yashash qiyin.*”Bu esa **sизsiz** ya’ni bir o‘zim siz bo‘lmasangiz degan ma’no-mazmunni,tushunchani anglatib keladi.

III-u ular (o‘zga)III shaxs kishilik olmoshlari insonlarga qarata ishlatiladi.Ammo **u** olmoshi narsalarga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Masalan: “*Mashinam bor. U qora.*”**Ular** olmoshi ham xuddi shunday kishilarga nisbatan ko‘plik shaklini hosil qilib kelyapti.Kishilarga nisbatan ham narsalarga nisbatan ham ishlatiladi.Masalan: “*Kiyimlarim ko ‘p. Lekin ular eskirgan.*”

I va II shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga **-ni**, **-ning**, **-niki** qo‘srimchalari qo‘shilganda qo‘srimcha tarkibidan bir **-n** tovushi tushib qoladi.

Men +ni **meni**, Sen +ning **sening**, Sen +niki **seniki**.

III shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga **-ga**, **-da**, **-dan** qo‘srimchalari qo‘shilganda bir **-n** tovushi ortadi. M: **unga**, **unda**, **undan** kabi. Kishilik olmoshlari egalik shakllarini qabul qilmaydi.

Har uchala shaxs ko‘plikdagi kishilik olmoshlari (biz, siz, ular) uslubiy talab bilan birlikdagi kishilik olmoshlari o‘rnida (men, sen, u) qo‘llanishi mumkin.

- a) Ko‘plikni ifodalovchi olmosh birlikda ham qo‘llanadi. **Biz-men**-kamtarlik, maqtanish ma'nolarida keladi: Kamtarlik ma'nosida - *Biz bu xabarni, albatta,yetkazamiz.* Maqtanish, kibr ma'nosida - *Bu ishni biz o‘zimiz bajardik.*
- b) Sen o‘rnida **siz**, u o‘rnida **ular** olmoshi ishlatilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan: *Siz bugun bir o‘zingiz onajoningizni ko‘rib keldingiz. Men onamni yaxshi ko‘raman. Ular ham meni yoqtiradi.*
- d) **Siz** olmoshi, ko‘pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo‘llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko‘plik sonda **sizlar** shakli ishlatilishi mumkin. *Sizlar kelajagimiz.*

2. O‘zlik olmoshi.

O‘zbek tilida o‘zlik olmoshlari bo‘lib , kishilik olmoshlari o‘rnida qo‘llanilib, ko‘pincha shaxsni, ba’zan predmetni ko‘rsatuvchi **o‘z** so‘zi o‘zlik olmoshi hisoblandi. O‘zlik olmoshi egalik shakllarini olib har uchala shaxs kishilik olmoshi o‘rnida almashinib qo‘llanilishi mumkin.

Men - o‘zim.*Ertaga meni o‘zim boshlig‘imiz oldiga boraman.*

Biz - o‘zimiz.*Kelajak poydevorini biz o‘zimiz qo‘ramiz.*

Sen - o‘zing.*Bu ishlarni boshida sen o‘zing turibsan-ku?*

Siz - o‘zinggiz.*Boshlig‘imiz siz o‘zingiz.*

U - o‘zi.*Kecha oshxonada ovqat pishirgan uning o‘zi.*

Ular - o‘zlari.*Mashinada borgan, ularning o‘zlari.*

O‘zbek tilida kishilik va o‘zlik olmoshi ketma -ket kelsa, ta’kid ma'nosи berib keladi. *Bu ishni men o‘zim qildim.* O‘zlik olmoshi kinoya, piching ma'nolarini anglatishi mumkin. *O‘zlarimi kelsinlar.* O‘zlik olmoshi egalik shakllarisiz qo‘llanmaydi. O‘zlik olmoshiga barcha shakllar egalikdan keyin qo‘shiladi. (ko‘plik bundan mustasno).

O‘z+imiz+ga, O‘z+i+day

O‘z+im+niki, O‘z+lar+i

O‘zlik olmoshi iboralarni yasalishiga asos bo‘la oladi.

3. Ko‘rsatish olmoshi.

So‘z, so‘z birikmasi va gap o‘rida qo‘llanadi va ularga ishora qiladi. Quyidagilar ko‘rsatish olmoshari hisoblanadi: u, bu, o‘sha, shu, ana, mana, ana bu, ana shu, mana bu kabi.

I. So‘z o‘rnida: *Bozordagi sotuvchi mana shu.*

II. So‘z birikmasi: *Sen buni ko ‘r,qanday chiroylı.*

III. Gap: *Ko ‘ngilni yoritguvchi mehr bu.*

Bu ko‘rsatish olmoshlari og‘zaki nutqda: anavi, manavi. Mumtoz adabiyotda quyidagicha ifodalanadi: ul, bul, shul, andoq, o‘shal. Kishilik olmoshi va ko‘rsatish olmoshi o‘zaro shakldosh.Bu olmoshni farqlash matn mazmunida namayon bo‘ladi. Kishilik olmoshi kim? Masalan, *U so ‘zladi.* Ko‘rsatish olmoshi qaysi? so‘roqlariga javob boladi. *U tomonda darvoza bor.* Ko‘rsatish olmoshlariga egalik, -ga, -da, -dan, -dek, -aqa, -cha qo‘shimchalari qo‘shilganda -n tovushi ortadi.

Misol uchun: o‘sha+n+ga, o‘sha+n+da, o‘sha+n+dan,o‘sha+n+dek, o‘sha+n+aqa, o‘sha+n+cha.

4. So‘roq olmoshi.

Quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: Shaxs - kim? Narsa - nima? O‘rin-joy - qayer? Miqdor - qancha? Payt - qachon? Sabab - nima uchun?, nima sababdan? Harakat - nima qilmoq?, nima qiladi? Belgi - qanday?, qanaqa?, qaysi?.

Badiiy adabiyotda quyidagi turlari bor: ne, na, qay? qayon? nechuk kabi. Belgi bildiruvchi so‘roq olmoshi o‘rnida narsa ma'nosini beruvchi olmosh ishlatiladi. *Nima ichishga bor?* So‘roq olmoshi gapda boshqa so‘zlarga nisbatan kuchliroq aytildi.

5.Gumon olmoshi.

Quyidagi yo‘llar bilan hosil qilinadi:So‘roq olmoshlariga dir yoki alla qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi.

- a)So‘roq olmoshlariga dir qo‘shimchasini so‘z oxiriga qo‘shish orqali yasaladi,gumon olmoshi kim+dir?, nima+dir?, qachon+dir?, qayer+dir?;
- b)So‘roq olmoshiga endi alla qo‘shimchasini so‘roq olmoshlarning oldiga qo‘shish orqali yasaladi, gumon olmoshi alla+kim, alla+nima

Ammo hamma so‘roq olmoshlariga ham qo‘shilib gumon olmoshini yasamaydi,jumladan,allaqanday (allaqachon ravish hisoblanadi) alla + o‘rin, payt = ravish. Masalan, allamahal, allavaqt, allajoy;kabi so‘zlar ravish so‘z turkumiga xosdir.Bir so‘zi orqali ham yasalgan olmoshlarga gumon olmoshi desak bo‘ladi.Masalan:bir+kishi,bir+narsa,bir+nima;
Quyidagi so‘zlar ham gumon olmoshi hisoblanadi: falonchi, pistonchi, birov, biror, bir qator, bir xil, bir.

6.Belgilash olmoshi

O‘zbek tilida belgilash olmoshi to‘pdan ajratilgan yoki jamlab ko‘rsatilgan shaxs, narsa, belgi kabilarni ifodalaydi.Yoki belgilash olmoshini yasalishida so‘roq olmoshlari oldidan har so‘zini qo‘shish orqali yasaladi .Ularni tuzilishi,ma’nosiga qarab belgilash olmoshi 2 xil bo‘ladi:

- 1) Jamlikni ko‘rsatuvchi: Hamma, barcha, bari, butun, bor, jami
- 2) Yakkalab, ajratib ko‘rsatuvchi:Har bir, har kim, har nima, har qachon kabi.

Har so‘zi o‘rin va payt bildiruvchi so‘zlar bilan kelsa ravish hosil bo‘ladi. Har mahal, har vaqt, har pallada. Ayrim, ba'zi, bir xil, buncha, shuncha so‘zları ham belgilash olmoshi hisoblanadi.

7.Bo‘lishsizlik olmoshi

Quyidagicha bo‘lishsizlik olmoshi hosil qilinadi: So‘roq olmoshlariga hech so‘zi qo‘shilishi natijasida yasaladi.Ishni amalga oshmasligini bildirib keladi.Masalan:Hech+so‘roq olmoshi, hech kim,hech narsa,hech qachon,hech nima,v-zo.

Bo‘lishsizlik olmoshi qatnashgan gapning kesimi inkor bo‘ladi. *Hech narsa qilish mumkin emas. Hech qayerda ishlamaysan.* Olmoshlar badiiy adabiyotda stilistik vosita sifatida ishlatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki,O‘zbek tilida olmoshning imloviy yozilishi,yasalishi bu nutqiy jarayonda amalga oshadi.Bu esa badiiy adabiyotda olmoshning qo‘llanilishi badiiy estitika va imotsiya bag‘ishlab keladi hamda ta’kid,kuchaytirish ma’nolarini ham ifodalab keladi.Olmosh boshqa so‘z turkumi o‘rnida almashinib keladi.Bunda esa olmosh ifodalaydigan turli xildagi ma’nolar

matn ichidan anglashilib turadi. Olmoshni nutq jarayonida qo'llar ekanmiz olmoshning yasalishiga, imloviy yozilishiga katta ahamiyat berib boramiz,olmoshning so'z orttirilishi va qisqargan shakllari tilshunosligimizni so'z boyligiga ega ekanligi,yozilganda o'zgarishlar,so'zning imo ishoraviy jihatlari o'rganilib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev H.KIshilik olmoshi va hurmat ma'nosi//O'zbek tili va adabiyoti.Toshkent.2000.
2. Hamroyev M.Hozirgi o'zbek tilidagi ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari.Toshkent.2009.
3. Yusupova O.O'zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari.Samarqand.2007.
4. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. (2006). Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. -Toshkent, - 391 b.
5. Jamolxonov H.A. (2004). Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanmasi. 1-qism. -T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi.
6. Narbekova, E., & Khayrullayev, K. (2021). Predicativity and intonation as the main grammatical features of the sentence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 633-638.
7. Хайруллаев, X. З. (2021). САТҲ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАБИАТИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 4(2).
8. Tursunov U.M, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. (19920. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, to'ldirilgan 3- nashri. - T.: "O'zbekiston".
9. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, Rasulov I, Doniyorov X. (1980). Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. "O'qituvchi", T.